

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETING KONSEPSIYALARINI QO'LLASH: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Xursandov Komiljon Maxmatkulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
iqtisodiyot fanlari nomzodi v. b. dotsent, PhD
E-mail: komiljonXursandov1987@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada mashinasozlik sanoatini rivojlantirishda yashil investitsiyalarni jalb etish va ularning ekologik barqarorlik, yashil texnologiyalar hamda iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilinadi. AQSH, Yevropa va O'zbekiston tajribasi asosida yashil iqtisodiyotga o'tishdagi samarali mexanizmlar, jumladan, "Kelajak uchun sarmoya" dasturining nazariy asoslari ochib berilgan. Tadqiqotda yashil transport, chiqindisiz ishlab chiqarish va barqaror investitsiya muhitining ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: yashil investitsiya, mashinasozlik sanoati, ekologik barqarorlik, yashil texnologiyalar, barqaror rivojlanish.

Аннотация

В статье рассмотрено значение «зеленых инвестиций» в развитии машиностроительной отрасли и их влияние на экологическую устойчивость, технологическое обновление и экономический рост. На основе опыта США, Европы и Узбекистана проанализированы эффективные механизмы перехода к зеленой экономике. Представлена авторская программа «Инвестиции в будущее» как инновационный подход к формированию устойчивых производственных цепочек.

Ключевые слова: зеленые инвестиции, машиностроение, экологическая устойчивость, зеленые технологии, устойчивое развитие.

Abstract

This article explores the role of green investments in developing the machinery industry and their contribution to ecological sustainability, technological advancement, and economic growth. Drawing from the experiences of the US, Europe, and Uzbekistan, it highlights effective green economy mechanisms. The study introduces the "Investment for the Future" program as a strategic tool for fostering sustainable manufacturing and environmental resilience.

Keywords: green investment, machinery industry, ecological sustainability, green technologies, sustainable development.

Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirish jahon miqyosida zamon talabiga aylanib borayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham mazkur tarmoqni rivojlantirishda jahondagi rivojlangan ko'plab xorijiy davlatlarda bir qator yangi tajribalar keng qo'llanib kelinmoqda. Jumladan, yangi innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yashil texnologiyalar

va yashil energiya manbalaridan samarali foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan eko mahsulotlarni yangi turlarini ishlab chiqarish, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimini takomillashtirish, yashil investitsiya manbalarini kengaytirish hamda jahon miqyosida mavjud bo'lgan amaliyotdagi yangi tajriba va dasturlardan keng foydalanish mashinasozlik sanoati tarmog'ini jahon standartlari asosida yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlab bermoqda. Shuning uchun ham xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish, yashil investitsiyalardan samarali foydalanish metodlarini tahlil qilish, yashil iqtisodiyotga bog'langan holda tashkil etilgan yangi boshqaruv tizimlarini va atrof-muhit barqarorligini ta'minlashga qaratilgan yangi dasturlarini tahlil qilish kabi zamonaviy xorijiy tajribalarni keng miqyosda o'rganish mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan eng muhim jarayon hisoblanadi. Shu boisdan, rivojlangan davlatlardagi tajribalarga qaraydigan bo'lsak, bugungi kunda mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil investitsiyalardan samarali foydalanish borasida tadqiqotchi olimlar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda mazkur tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan global darajadagi innovatsiyalarga asoslangan yangi islohotlar ham jadallik bilan amalga oshirib kelinmoqda. Jahonning rivojlangan davlatlarida hozirgi kunga kelib mashinasozlik sanoati tarmog'ining tarkibini ko'plab tarmoqlar qamrab olgan bo'lib, ularga quyidagi 13 ta turdagi eng rivojlangan tarmoqlar kiradi. Jumladan:

- o'g'ir sanoat, energetika va transport mashinasozligi;
- stanoksozlik va instrumental sanoat;
- transport va qishloq xo'jalik mashinasozligi;
- aviatsiya sanoati;
- elektrotexnika sanoati;
- asbobsozlik sanoati;
- yo'l qurilishi va kommunal mashinasozligi;
- kemasozlik sanoati;
- metall va metall parchalariga ishlov berish sanoati;
- kimyo va neft-kimyo mashinasozligi;
- avtomobil sanoati;
- oziq-ovqat va yengil sanoat mashinasozligi hamda butlovchi asbob uskunalari;
- aloqa vositalari sanoati kabi bir qator tarmoqlardan iborat bo'lib, ushbu

tarmoqlarning barchasi umumiy mashinasozlik tarmog'i deb ataladi. Jahonda mazkur tarmoqlarni barchasi global sur'atlarda yashil investitsiyalar orqali rivojlanib bormoqda. Bunga sabab, atrof-muhitning barqarorligini oshirish hamda chiqindilarsiz yashil texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish hisoblanadi. Jumladan, xorij tajribalariga qaraydigan bo'lsak, eng rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan AQSh tajribasini ko'rib chiqamiz.

AQSh tajribasi. Bugungi kunda AQSh davlatini mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlanishida yashil investitsiyalarning roli juda ham yuqori bo'lib, mamlakatda mashinasozlik sanoati tarmog'ining 13 ta turdagi barcha tarmoqlari yashil investitsiyalarni hisobiga global sur'atlarda rivojlanib kelmoqda. Chunki, yashil

investitsiyalar xavfsiz bo'lib, mamlakatdagi ekologik barqarorlikni oshirishga hamda korxonalarda chiqindisiz ishlab chiqarishni yangi imkoniyat-larini rivojlanishiga xizmat qiladi. AQSH davlatining mashinasozlik sanoati dunyodagi eng yetakchi va yuqori o'rinni egallagan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Bunga sabab, mashinasozlik sanoati tarmog'idagi barcha tarmoqlarni rivojlanganligi va mazkur tarmoqlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ulushi dunyo bozorini egallab olganligi sanaladi. Xususan, AQSH davlatida yashil investitsiyalar asosan quyidagi 1.1-jadvalda ko'rsatib o'tilgan tarmoqlarga kiritilmoqda.

1.1-jadval

Yashil investitsiyalar kiritilgan tarmoqlarning nomlari va moliyalashtirish maqsadlari¹

T/r.	Tarmoqlarning nomi	Moliyalashtirish maqsadlari
1.	Qayta tiklanadigan energiya manbalari	Davlatni ichki energiya manbalari bilan ta'minlash
2.	Energiya samaradorligi	Energiya muammolarini bartaraf etish
3.	Ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish	Davlatda ekologik barqarorlikni ta'minlash
4.	Tirik tabiiy resurslar va yerdan foydalanishni ekologik jihatdan barqaror boshqarish	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish
5.	Quruqlik va suv biologik xilma-xilligini saqlash	Yangi loyihalarni ishga tushirish
6.	Toza transport: elektr, gibrid, jamoat transporti, temir yo'l, motorsiz, multimodal transport, toza avtomobil infratuzilmasi va chiqindilarni kamaytirish	Yashil transport turlarini joriy etish
7.	Suv va oqava suvlarni barqaror boshqarish	Ichimlik suvini asrab-avaylash
8.	Iqlim o'zgarishiga moslashish	Global ekologik muammolarni oldini olish
9.	Ekologik jihatdan samarali va moslashtirilgan aylanma iqtisodiyot mahsulotlari, ishlab chiqarish texnologiyalari va jarayonlari	Yangi iqtisodiy imkoniyatlarni joriy etish
10.	Mintaqaviy, milliy yoki xalqaro miqyosda tan olingan standartlar yoki sertifikatlariga javob beradigan yashil binolar	Yashil binolarni qurish va ulardan samarali foydalanish

Mazkur 1.1-jadvaldan ko'rinadiki, AQSH davlatida yashil investitsiyalardan samarali foydalanish asosan 10 xil turdagi tarmoqlarga sarflanmoqda. Natijasi esa davlatning bir qator dolzarb maqsadlarini ijobiy hal etilishiga yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Ushbu 10 xil yo'nalishdagi tarmoqlar barchasi o'zaro bir-biriga uzviy bog'langan tarmoqlar sanaladi. Chunki, birgina 6-tarmoq ya'ni toza transport elektr, gibrid, jamoat transporti, temir yo'l, motorsiz, multimodal transport, toza avtomobil infratuzilmasi va chiqindilarni kamaytirish uchun yuqoridagi barcha tarmoqlarni hissasi mavjud bo'ladi. Chunki, toza transportni ishlab chiqarishdan asosiy maqsad

¹ Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

mamlakatdagi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiya samaradorligini tejash, ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish, tirik tabiiy resurslar va yerdan foydalanishni ekologik jihatdan barqarorligini saqlab qolish hamda iqlim o'zgarishiga moslashish kabi barcha tarmoqlarga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham ushbu 10 ta eng dolzarb bo'lgan tarmoqlarni yashil investitsiyalar orqali moliyalashtirish mamlakatda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, AQSH sanoatining ko'rsatkichlari yildan-yilga yuqori sur'atlarda o'sib bormoqda. Jumladan, ishlab chiqarish sanoati 2023-yilda YaIMning tarkibida 2,9 trln. dollar ya'ni 10 foiz ulushni qayt etgan bo'lib, buning natijasida esa tarmoqda jami 13 million kishi ish bilan bandligi ta'minlangan. Mazkur ko'rsatkich AQSHdagi jami mehnat bandligining 8,3 foizini tashkil etadi¹.

Xalqaro tashkilotlar tajribasi. Bunda asosan BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan MDH mintaqasida barqaror rivojlanishni moliyalashtirish salohiyatini kuchaytirish loyihasi doirasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida mamlakatlarning ilg'or jahon tajribasi va metodologiyasini baholovchi tahlili bo'yicha hisobot ishlab chiqilgan. Ushbu loyiha Rossiya Federatsiyasi hukumati tomonidan Yevrosiyo taraqqiyot banki ko'magida moliyalashtirilgan. Mazkur loyihadagi tadqiqotning maqsadi mamlakatlarning yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va yashil iqtisodiyot sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish sohasidagi ilg'or jahon tajribasi va metodologiyalarini tahlil qilish, shuningdek, Sobiq sovet ittifoqi va Yevrosiyo makonida yashil iqtisodiyot va yashil moliyalashtirishni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu tadqiqotlar Yevrosiyo taraqqiyot banki (YTB), Xalqaro taraqqiyot banki (XTB) va Xalqaro moliya tashkiloti (XMT) ko'magida tashkil etilgan.

Ushbu tadqiqot Yevrosiyo taraqqiyot banki (YTB), Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YII), Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasi (YIK), MDH mintaqasi mamlakatlarining davlat idoralari va Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YII)ga a'zo davlatlariga tatbiq etilgan. Mazkur xalqaro tashkilotlarning tajribasiga qaraydigan bo'lsak, Yevropa va Sobiq ittifoq hududida joylashgan mamlakatlardagi mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda bevosita yashil investitsiyalardan samarali foydalanishning yangi tajribalari ko'rsatib o'tilgan.

Jumladan, statistik tahliliy ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, qayta tiklanadigan energiya bo'yicha xalqaro agentlik (IRENA) hisob-kitoblariga ko'ra, agar xalqaro hamjamiyat qayta tiklanadigan energiya imkoniyatlaridan to'liq foydalansa, 2050-yilga borib qayta tiklanadigan energiya sektorida 40 milliondan ortiq kishi ish bilan ta'minlanishi keltirib o'tilgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hisob-kitoblariga ko'ra, AQSHda ekotizimni tiklash bevosita 126 000 ishchini ish bilan ta'minlaydi va har yili 9,5 milliard dollar iqtisodiy mahsulot ishlab chiqarishi bayon etilgan. Bundan tashqari, mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan yashil texnologiyalarni joriy etish va yashil transport tizimini rivojlantirishga qaratilgan yangi dasturlar ham qabul qilingan. Shuning uchun ham mazkur xalqaro

¹ <https://think.ing.com/articles/us-manufacturing-outlook-better-times-are-coming/>

tashkilotlarning tajribasiga ko'ra, quyidagi bir qator davlatlarning tajribasi o'rganib chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi tajribasi. O'zbekiston davlatining tajribasiga qaraydigan bo'lsak, mamlakatimizda ham mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlanishida bevosita yashil iqtisodiyotni tez sur'atlarda o'sib borayotganligi, yashil investitsiyalarni hajmi yildan-yilga ortib borishi hamda yashil texnologiyalarni amaliyotga keng tatbiq etilayotganligi mazkur tarmoqni rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Jumladan, Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni jadallik bilan rivojlantirish va yashil investitsiyalarni keng jalb etish borasida ko'plab yangi islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-maydagi "Mashinasozlik va elektrotexnika maxsus sanoat xabi" maxsus sanoat zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5128-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko'ra, mashinasozlik va elektrotexnika sanoatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mahalliy xomashyo resurslarini qayta ishlash, import o'rnini bosuvchi, eksport bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonini to'liq yo'lga qo'yish, qulay investitsiya muhitini yaratish hamda yuqori texnologiyali va zamonaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirish¹ vazifalari belgilab berildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qaroriga ko'ra, quyidagi vazifalar belgilab berildi:

- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturini joriy etish;
- transport va chiqindilarni boshqarishning barqarorligini ta'minlash hamda respublikada "yashil" (eko) turizmni rivojlantirish;
- transport infratuzilmasini rivojlantirishni hisobga olgan holda, shahar aglomeratsiyasi shakllanishini takomillashtirish;
- transport, yo'llar, suv ta'minoti va kanalizatsiya, "yashil" maydonlar va yo'laklar, shahar va shahar atrofida o'rmonlar yaratish;
- barcha turdagi transport vositalari uchun sarf qilinadigan energiya resurslari me'yorlarini ishlab chiqish;
- yashil investitsiyalar konsepsiyasini amaldagi investitsiya siyosati va loyihalariga integratsiya qilish;
- yashil investitsiyalar va kreditlar uchun rag'batlantiruvchi fiskal va monetar imtiyozlar ishlab chiqish;
- yashil" obligatsiyalar orqali "yashil" infratuzilma uchun xususiy kapitalni jalb qilish;

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-may PQ-5128-son "Mashinasozlik va elektrotexnika maxsus sanoat xabi" maxsus sanoat zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-5435615>

- yashil moliya sohasida salohiyatni oshirish, davlat va xususiy “yashil” investitsiya loyihalarini ishlab chiqish¹ kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “Yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmoniga ko‘ra, quyidagi vazifalar belgilab berildi:

- 2025-yildan boshlab shakllantiriladigan investitsiya dasturlari, tarmoq, sohalar va hududlarni rivojlantirish bo‘yicha yangi loyihalarining 15 foizida, 2027-yildan boshlab — 30 foizida, 2030-yildan boshlab — 55 foizida “yashil komponentlar” bo‘lishi lozim;

- 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasida yashil moliyalashtirish (Climate Finance) tizimini takomillashtirish bo‘yicha milliy dastur ishlab chiqish;

- yashil moliya va yashil iqtisodiyot pavilyonini tashkil etish;
- yashil transportda shu jumladan, velosipedda harakatlanishni rag‘batlantirish;
- milliy transport tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobiga mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘rinishini ta‘minlash;
- avtomobil transporti sohasini raqamlashtirish² kabi dolzarb vazifalarni belgilab berilishi mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni hamda mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktyabrdagi “Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 561-sonli qaroriga ko‘ra, quyidagi vazifalar belgilab berildi:

- yashil transport sohasida yashil infratuzilmasini rivojlantirish;
- kam uglerodli transport vositalarini shu jumladan, elektr transport vositalarini, vodorod, gibrid dvigatellarda ishlaydigan transport vositalarini joriy etish;
- yashil obligatsiyalar va kreditlar, shuningdek boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan yashil turdagi loyihalarini rivojlantirish³ kabi ustuvor vazifa va chora-tadbirlarni amalga oshirilishi ham mamlakatimizdagi yashil tizimni rivojlanishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi davlatlarning tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimizdagi mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirishda yashil investitsiyalardan samarali foydalanish orqali yangi imkoniyatlarni amaliyotga keng tatbiq etish mashinasozlik sanoati tarmog‘idagi muammolarni hal etishga qaratilgan samarali yechimlardan biri hisoblanadi. Mazkur yangi yechimni joriy etish maqsadida, ilmiy tadqiqot ishimiz doirasida quyidagi birinchi ilmiy yangilikni amaliyotga tatbiq etdik. Jumladan, uslubiy yondashuvga ko‘ra “Mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirishda yashil

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabr PQ-436-sonli “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar PF-16-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “Yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktyabr 561-sonli “Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-6644013>.

investitsiyalardan foydalanish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mashinasozlik sanoati tarmog‘idagi yashil investitsiyalarni salmog‘ini oshirish va yashil transport tizimini rivojlantirish, ekologik barqarorlikni o‘rnatish ta’minlashda unga ta’sir etuvchi omillarni o‘zaro integratsiyalash asosida mashinasozlik sanoati tarmog‘ining tarkibiy o‘zgarishlariga ko‘maklashish va kelajakka mos qiymat zanjirlarini yaratishga qaratilgan “Kelajak uchun sarmoya” nomli yangi dasturi asoslangan bo‘lib, mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga tatbiq etilishi natijasida oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarda mashinasozlik sanoati tarmog‘ida yashil investitsiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllanishiga, xorijiy tajribalarni o‘rganishga, yashil texnologiyalarni tahlil qilishga, yashil transport tizimini rivojlantirishga doir tavsiyalarni egallashga hamda mamlakatimizdagi ekologik barqarorlikni saqlab qolishga qaratilgan ilmiy va amaliy jihatdan tavsiya etilgan yangiliklarni ilmiy tadqiqotlari doirasida qo‘llashga doir yangi tajribalarni egallashlariga xizmat qiladi.

Mazkur “Kelajak uchun sarmoya” nomli yangi dasturining asosiy maqsadi mamlakatimizdagi mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlanishiga hamda tarmoqning kelajakdagi kutiladigan mavjud muammolarini bartaraf etishga qaratilgan sarmoya bo‘lib, hozirgi kunda amaliyotdan mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirishga va kelajakdagi muammolarini bartaraf etishga qaratilgan sarmoya tizimi mavjud emas, faqatgina davlat byudjetidan joriy 1 yil uchun ajratiladigan mablag‘lar mavjud, biroq ushbu yangi dasturning imkoniyatlariga o‘xshab keyingi 10 yil, 15 yil va 20 yil uchun oldindan sarmoya ajratilmagan. Ushbu sarmoyani eng samarali jihati shundaki, agar mamlakatda mashinasozlik sanoati tarmog‘idagi korxonalarda iqtisodiy qaramlik kuzatilsa, moliyaviy yo‘qotishlar paydo bo‘lsa hamda iste’molchilar tomonidan avtomobillarni xarid qilish qobiliyatlari pasayganda ularni rag‘batlantiruvchi tizim sifatida ham foydalanish imkoniyatini beradi. Davlat byudjeti tejalib boradi. Qolaversa, tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan “Bonus” sifatida ham xalqaro tajribada baholanadi. Shuning uchun ham, mazkur yangi dasturni joriy etilishi mashinasozlik sanoati tarmog‘i uchun oldindan investitsiya mablag‘larini to‘plab borish imkoniyatini ham yaratib beradi. Ushbu dasturning imkoniyatlari ko‘p bo‘lganligi uchun ham yangi dastur sifatida amaliyotga joriy etish mamlakatimizdagi mashinasozlik sanoati tarmog‘ida yangi imkoniyatlarini yaratilishiga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rinda shuni aytish joizki, ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlardagi mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirishda yashil investitsiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha tajribalari o‘rganib chiqildi. Barcha tajribalardan ko‘rish mumkinki, mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlanishi bevosita bugungi kunda yashil investitsiyalarga bog‘liq bo‘lib, yashil investitsiyalar nafaqat mamlakatdagi mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlanishiga, balki mamlakatlardagi yashil iqtisodiyotni, yashil texnologiyalarni, yashil transport tizimini, ekologik barqarorlikni hamda yashil loyihalarni rivojlanishiga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Yashil investitsiyalarni salmog‘ini oshirish mamlakatdagi yashil transport tizimini yuksalishini ta’minlaydi. Qolaversa, xorijiy davlatlardagi yashil investitsiyalardan samarali foydalanishning yangi tajribalarini o‘rganish

mamlakatimizdagi mashinasozlik sanoati tarmog'idagi mavjud bo'lgan ko'plab muammolarni bartaraf etishga qaratilgan yangi innovatsion yechimlarni amaliyotga keng tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil investitsiyalardan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb talabiga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham, mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil investitsiyalardan samarali foydalanish ekologik holatni yaxshilash omili sifatida e'tirof etilmoqda. Yuqoridagi keltirib o'tilgan ilmiy tadqiqot ishlarida, nazariy jihatdan olib borilgan ilmiy tajribalarda, bir qator ilmiy manbalardagi keltirib o'tilgan ilmiy asoslarda hamda muallif tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining xulosalarida haqiqatan ham bugungi kunda mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirish uchun yashil investitsiyalardan samarali foydalanish mashinasozlik sanoati tarmog'idagi mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan eng muhim innovatsion yechim ekanligi hamda mashinasozlik sanoati tarmog'i tarkibidagi korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini ekologiyaga ta'sirini yaxshilashga qaratilgan ijobiy omil ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. Shuning uchun ham, mashinasozlik sanoati tarmog'ida yashil investitsiyalarni jadallik bilan rivojlantirish mamlakatimizdagi ekologik holatni yaxshilanishiga va ekologiyani, atrof-muhitni hamda tabiatni yuqorida darajada barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon miqyosida va mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan kelib chiqib, bugungi kunda mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlanishida ko'plab omillarni ta'siri mavjud bo'lib, ularni ichida eng asosiy omillar tasnifi yirik ikki guruhga bo'linadi. Mashinasozlik tarmog'ini rivojlanishi bevosita ijobiy va salbiy omillarga bog'liq jarayon hisoblanadi. Chunki, ijobiy omillar tufayli tarmoqni rivojlanishiga erishilsa, salbiy omillar tufayli esa tarmoqdagi ko'rsatkichlarni asta-sekin pasayishiga erishiladi. Har ikki omillar tasnifi o'zaro bog'liq jarayon bo'lib ularni doimo nazorat qilib borish talab etiladi. Sababi, salbiy omillarni ortib ketishi tarmoqni rivojlanishga xavf-xatarlarni oshirib yuborsa, ijobiy omillarni ortib ketish esa tarmoqdagi muammolarni aniqlash imkoniyatlarini yo'qotilishiga olib keladi. Shuning uchun ham mazkur ikkita omillarni o'zaro tasnifini me'yoriy jihatlarini saqlab qolish lozim bo'ladi. Shundagina tarmoqda rivojlanish ko'rsatkichlari yuqori sur'atlarda o'sib borishiga erishiladi. Faqatgina ijobiy omillarni aniqlash va o'rganish, ularni rivojlantirish tarmoqni rivojlanishini oshishiga sabab bo'lmaydi. Eng katta xavf-xatar salbiy omillarni aniqlash va o'rganish hamda ularni bartaraf etish hisoblanadi. shuning uchun ham salbiy omillarni kamaytirish hisobiga ijobiy omillarni oshishga erishiladi. Natijada esa tarmoqni rivojlanishi yuzaga keladi.

Ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlardagi mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil investitsiyalardan samarali foydalanish bo'yicha tajribalari o'rganib chiqildi. Barcha tajribalardan ko'rish mumkinki, mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlanishi bevosita bugungi kunda yashil investitsiyalarga bog'liq bo'lib, yashil investitsiyalar nafaqat mamlakatdagi mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlanishiga, balki mamlakatlardagi yashil iqtisodiyotni, yashil texnologiyalarni, yashil transport tizimini, ekologik barqarorlikni

hamda yashil loyihalarni rivojlanishiga ham to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Yashil investitsiyalarni salmog'ini oshirish mamlakatdagi yashil transport tizimini yuksalishini ta'minlaydi. Qolaversa, xorijiy davlatlardagi yashil investitsiyalardan samarali foydalanishning yangi tajribalarini o'rganish mamlakatimizdagi mashinasozlik sanoati tarmog'idagi mavjud bo'lgan ko'plab muammolarni bartaraf etishga qaratilgan yangi innovatsion yechimlarni amaliyotga keng tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://think.ing.com/articles/us-manufacturing-outlook-better-times-are-coming/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-may PQ-5128-son "Mashinasozlik va elektrotexnika maxsus sanoat xabi" maxsus sanoat zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-5435615>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabr PQ-436-sonli "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar PF-16-sonli "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "Yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktyabr 561-sonli "Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-6644013>